

## MEHRIBONLIK UYI BOLALARINING PSIXOLOGIK VA AXLOQIY RIVOJLANISHI

**Rahmanqulov Shuhrat** - Jizzax davlat pedagogika universiteti, Umumiy psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

**Ergasheva Gulshan-** JDPU, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy-psixologik holati, hamda emotsional holati haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehribonlik uyi, bolalar, tarbiyachilar, xodimlar, sharoitlar, stresslar, psixologik oqibatlar.

Farzand - bu eng qadrli ne‘mat.Olloh tomonidan yaratilgan mo‘jiza. Uning jajji qo‘llari, quyoshday porlab turgan ko‘zlari xuddi bir mo‘jizaki, undan rohatlanmaslikning iloji yo‘q.Afsuski, ayrim insonlar shu ne‘matni qadriga yetmay, mehribonlik uyiga olib borishmoqda.

Mehribonlik uylari - yetim va ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan ta‘lim tarbiya muassasasi.Yetim yoki qonuniy qonuniy vasiylar qarmog‘ida bo‘lmagan bolalar,ota-onalari sud hukmi bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan,ota-onalari voz kechgan bolalar uchun tashkil qilingan. Mehribonlik uylarida 3yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom bolalar yashashi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning o‘qitish va boqish to‘la davlat ta‘minoti asosida to‘lab beriladi. Mehribonlik tarbiyalanuvchilarning maktab o‘quv dasturini to‘liq o‘zlashtirishlari,ularning mehnat ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash, jismoniy kamol topishlari, axloqiy hamda estetik tarbiya olgan barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlari ta‘minlanadi. Hozirgi kunda bolalarning mehribonlik uyiga olib borilishining sabablari nimada? Shunday vaziyatlar bo‘ladi, inson ekanligimizni esimizdan chiqaramiz. Norasida bolalarda nima ayb? Ular mehribonlik uyida yashayman, davlatni qo‘lida katta bo‘laman, deb dunyoga kelishmagan. Hozirgi yangi oila qurgan yoshlar o‘ylaydiki, farzand menga kerak emas, u oilamizga ziyon keltiradi. Axir tirnoqqa zorlar qancha.Uni kulishlarini tinglayman deganlar,alla aytaman farzandimga deganlarchi.Afsus hozir ba’zi bir nomard insonlar shu ne‘matni qadriga yetmay mehribonlik uyiga olib borishmoqda.Lekin bolalar qanchalik ota –ona mehriga muhtoj ekanliklarini his qilish ularning qo‘lidan keladimikan? Olloh nasib etgan bu ne‘matni mehribonlik uyiga tashab ketishga hech kimni haqi yo‘q. Mehribonlik uyida ularga mehr berishadi, o‘z ota –onasidek tarbiyalashadi,lekin ular qanchalik mehr berishmasin, ota-ona mehrichalik bola olmaydi. U bolalar ko‘zlarida yosh bilan

qanchalik ota-onasini kutib, yo‘llariga intizor bo‘lishadi. Ularnin ko‘zidan oqqan har bir ko‘z yoshi uchun o‘sha bemehr ba‘zi bir ota-onalar Ollohning yonida qanday javob berishadi ekan, yo‘q lekin ular buni o‘ylashmaydi farzandini bemalol tashlab ketishadi, ularning jajji ko‘ngilchalari bilan ishlari yoq. Shuning uchun biz yoshlar bunung oldini olishimiz zarur bolalarni qanchalik qadrli va buyuk ne‘matligini bilishimiz darkor. Chunki bolalar bizni kelajagimiz, bizning kelajakda qanday hayot kechirishimiz o‘sha murg‘ak bolalarning qo‘lida. Oramizda bag‘ri keng insonlar ham bor. Masalan: 16 ta farzandni o‘z qamroviga olgan Shomahmudovlar oilasi. Ular ikkinchi jahon urishidagi nemis, rus o‘zbek bolalari edi. Ularga o‘z mehrini berib, voyaga yetkazishdi. Davlatimiz ularni majburlashmagan. Ular mehr-oqibatli bo‘lishgan. Nahotki, shunday yo‘l tutish bizni qo‘limizdan kelmasa, biz axir musulmonmiz-ku.

Ey inson hayot faqat o‘yin-kulgidan iborat emas, hayotimizni chiroyli yaratish o‘zimizning qo‘limizda. Farzandlarimizni o‘zimiz tarbiyalab, elga xizmat qiladigan inson qilishimiz o‘zimizga bog‘liq. Men bu maqolam bilan noto‘g‘ri yo‘lda turgan oilalarimizga shunday demoqchiman: “Hurmatli yoshlar Olloh tomonidan berilgan, yaratilgan ne‘matimizni asrab – avaylaylik, chunki ular ya’ni siz tarbiyalagan yosh nihollar, elimizga, yurtimizga katta hissa qo‘shadigan olim bo‘lsa, ajab emas”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Z.Nishonova va Sh.Asomiddinova.Psixologik maslahat T. 2010yil
- 2.Karimova V.M “ Psoxologiya ” T.Sharq 2022y.
3. O‘zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil.
4. <http://www.psy-doctor.ru/book01-57.php>
- 5.Vaxobova, M. (2024). O‘SMIRLARNING OTA-ONALARI BILAN MUNOSABATLARIDAGI MUAMMOLAR. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4(2), 53-57. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9696>
7. Jumanova, N & Vahobova, M. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRIISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php>.
- 8.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1).
- 9.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (1).
- 10.Usmonova, M. (2023). O‘SMIRLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3).

11.Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.

12.Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(2).

13.Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛГУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).

14.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

15.Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.